



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-sentabr

467-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ–312-son qarori ijrosi haqida”gi 429-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligi va barqarorligini ta‘minlash, bank va mikromoliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ–312-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 429-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 429-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ–312-son qarori bilan:

“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi (keyingi o‘rinlarda Dastur) doirasida quyidagi mexanizmlar amaliyotga joriy etilishi:

bir loyiha doirasida 300 million so‘mgacha mikrokreditlarni, shundan 100 million so‘m garovsiz qismini "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Kompaniya) mablag‘lari hisobidan, 200 million so‘mgacha qismini banklar va mikromoliya tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda mikrokredit beruvchilar) o‘z mablag‘lari hisobidan ajratish;

garovsiz ajratilgan 100 million so‘m doirasida mikrokreditlar bo‘yicha kredit tavakkalchiligini davlat va mikrokredit beruvchilar o‘rtasida taqsimlash yoki ular bo‘yicha Kompaniyaning portfel kafilligini taqdim etish;

mikrokredit beruvchilar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan 100 million so'mgacha garovsiz mikrokreditlarni qayta moliyalashtirish tizimiga o'tish;

belgilanishicha, Dastur doirasida 100 million so'mgacha garovsiz mikrokreditlar:

a) barcha mikrokredit beruvchilar tomonidan kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilishi, bunda kichik tadbirkorlik subyektlarini tanlab olishda boshqa talablar va mezonlar kiritilishiga yo'l qo'yilmasligi;

b) 2024-yil 1-noyabrdan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan hudud toifasidan kelib chiqqan holda Kompaniya tomonidan mikrokredit beruvchilarga quyidagi stavkalarda qayta moliyalashtirilishi:

5-toifa uchun 12,5 foiz; 4-toifa uchun 13,5 foiz; 3-toifa uchun 14,5 foiz; 2-toifa uchun 17,0 foiz; 1-toifa uchun 18,0 foiz;

v) yillik stavkasi 24 foizdan oshganda yoki 1-3-toifadagi tumanda (shaharda) savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan bog'liq loyihalar uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga ajratilganda, Kompaniya tomonidan qayta moliyalashtirilmasligi va ular bo'yicha portfel kafilligi taqdim etilmasligi;

dastur doirasida mikrokreditlar ajratish va resurs mablag'lari bilan ta'minlashning quyidagi tartibi joriy etilganligi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Kompaniyaga moliyaviy mablag'larni Markaziy bankning asosiy stavkasidan ikki foiz band past stavkada 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga joylashtirishi;

mikrokredit beruvchilar tomonidan 7 yilgacha bo'lgan muddatga ajratilgan 100 million so'm doirasidagi mikrokreditlar Kompaniya tomonidan 10 (o'n) ish kunida qayta moliyalashtirilishi;

Kompaniya mablag'lari ustuvor ravishda 3-5-toifadagi tumandan (shahardan) ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlarni qayta moliyalashtirishga yo'naltirilishi;

mikrokreditlar Kompaniya tomonidan qayta moliyalashtirilganda yoki ular bo'yicha portfel kafilligi berilganda, mazkur mikrokreditlar bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son Farmonida nazarda tutilgan kompensatsiya taqdim etilmasligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq 2024-yil 1-noyabrdan boshlab:

a) mikrokreditlarni qayta moliyalashtirishda ular bo'yicha yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini tumanlar (shaharlar) toifasidan kelib chiqib, Kompaniya va mikrokredit beruvchilar o'rtasida taqsimlash tizimi joriy qilinishi;

bunda Kompaniya mikrokredit beruvchilarga joylashtiradigan resurs mablag'larining tegishli qismi quyidagi miqdorlarda garov depoziti sifatida qabul qilinishi:

5-toifadagi tumanda (shaharda) ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'yicha 80 foiz;

4-toifadagi tumanda (shaharda) ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'yicha 60 foiz; 3-toifadagi tumanda (shaharda) ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'yicha 40 foiz; 1-2-toifalardagi

tumanda (shaharda) ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'yicha 20 foiz;

b) mikrokredit beruvchilar tomonidan ajratilgan hamda Kompaniya resurslari hisobidan qayta moliyalashtirilmaydigan 100 million so'm doirasidagi garovsiz mikrokreditlar bo'yicha Kompaniyaning portfel kafilligi taqdim qilinishi;

bunda kafillik bo'yicha to'lab berish majburiyati mikrokredit bo'yicha qarzdorlik muddati o'tgan sanadan 90 kun o'tgandan so'ng bajarilishi;

v) mikrokreditlarni qayta moliyalashtirish uchun Kompaniya tomonidan olingan mablag'lar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga mikrokredit so'ndirilishiga qarab qaytarilishi, bunda mikrokreditni so'ndirish bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi natijasida mikrokredit beruvchilar tomonidan Kompaniyaga qaytarilmagan mablag'lar bo'yicha Kompaniyaning Iqtisodiyot va moliya vazirligi oldidagi majburiyatlari bekor qilinishi;

g) Dastur doirasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish uchun amaliy o'quv kurslarini tugatganlik to'g'risida sertifikatga ega bo'lish talab etilmasligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o'rinlarda Jamg'arma) mol-mulklarini baholashdan o'tkazmagan holda uni Kompaniyaga qo'shib yuborish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

bunda:

Jamg'arma ustav kapitalidagi "Biznesni rivojlantirish banki" ATB (keyingi o'rinlarda Biznesni rivojlantirish banki) ulushini nominal (balans) qiymatiga kamaytirish hisobiga Jamg'armaning "Raqamli transformatsiya markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda 14 ta "Kichik biznesga ko'maklashish markazlari" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushlari Biznesni rivojlantirish bankiga o'tkazilishi;

Biznesni rivojlantirish banki ustav kapitalidagi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini nominal (balans) qiymatiga kamaytirish hisobiga Biznesni rivojlantirish bankining Jamg'arma ustav kapitalidagi 100 foiz ulushi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Kompaniyadagi ulushini oshirish hisobiga Kompaniyaga o'tkazilishi;

Biznesni rivojlantirish bankining kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida asosiy tayanch bank sifatida:

xalqaro va mahalliy ekspertlarni jalb qilgan holda o'sish va rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan tadbirkorlar faoliyatiga ko'mak berish va hamrohlik qilish bo'yicha mentorlar yoki yetakchi tadbirkorlar guruhini shakllantirish, bunda yil yakuniga qadar 24 ta mentorlar faoliyatini yo'lga qo'yishi;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida o'sish va rivojlanish salohiyatiga ega tadbirkorlik subyektlarini tanlab olish orqali ularni individual yondashuv asosida o'stirish;

har bir hududda yuqori qiymat yaratuvchi yangi kichik tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish yoki rivojlanishiga ko'maklashish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bankning xizmat ko'rsatish markazlarini ochish;

2024-2025-yillarda 100 ta yangi biznes yo'nalishi bo'yicha loyiha takliflarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etib borish;

3-, 4- va 5-toifadagi hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar ajratish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rib borish borasidagi takliflari ma'qullanganligi; belgilanishicha:

moliyaviy yordamlarni taqdim etish doirasida Kompaniya tomonidan tadbirkorlik subyektlarining buyurtmasiga asosan asbob-uskuna va boshqa mol-mulklar hamda xomashyolar xarid qilishda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablari tatbiq etilmasligi;

Kompaniyaga u tomonidan tuzilgan import shartnomalariga asosan tadbirkorlar mablag'lari hisobidan 50 foizgacha bo'nak to'lovlarini o'tkazishga ruxsat berilishi;

Jamg'arma tomonidan tijorat banklariga ilgari joylashtirilgan resurs mablag'lari tasdiqlangan grafiklar asosida so'ndirilganidan so'ng Kompaniya tomonidan qayta moliyalashtirishga yo'naltirilishi;

kredit (lizing) mablag'laridan kredit (lizing) shartnomasida va/yoki buyurtmada ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanilmaganda, ushbu kredit (lizing) bo'yicha to'langan kompensatsiya mablag'lari tijorat banki tomonidan Kompaniyaga qaytarilishi. Bunda ushbu qoida Jamg'arma bilan avval tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan munosabatlarga ham tatbiq etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tumandagi tijorat banklari (A.Qo'chqarov, O.Ergashev, K.Mirzaliyev) belgilansin.

4. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov